

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



KURS ISHI

Mavzu: Sinf rahbari ishini milliy qadriyatlar bilan boyitish

Bajardi. A.O. Atajonova

Qabul qildi. D.Xodiyeva

TOSKENT 2014 yil

Sinf rahbari ishini milliy qadriyatlar bilan boyitish

Kirish

Asosiy qism

1.Sinf rahbari ish faoliyatini tashkil etishning shart-sharoitlari.

2. Tarbiyaviy ishlar tizimida milliy qadriyatlarni o'rni

3. Sinf dan tashqari ishida milliy qadriyatlardan foydalanishning shakl va metodlari

Xulosa

Adabiyotlar ro'yxati.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish bizning milliy pedagogikamizda azaldan mavjud bo'lgan va turli davrlarda u o'ziga xos ko'rinish hamda mazmun-mohiyatiga ega bo'lgan. Bu tarbiya sohasi o'zining turli-tumanligi jihatdan qadriyatlar yo'nalishlari bilan bog'liq bo'lib, uning bolalar dunyoqarashi hamda ruhiyatiga ta'sir etib, ma'lum bir ko'nikmalar hosil qilishi juda bir murakkab jarayondir. Ushbu murakkab jarayon qadriyatlarning yuzaga kelish asoslari bilan bog'liqdir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mavzuning mazmun-mohiyati, maqsadi o'zining asoslari va yo'nalishi jihatdan ijtimoiy, falsafiy, didaktik, psixologik, badiiy hamda diniy yo'nalishlarga egadir. Uning ijtimoiy asosi jamiyatdagi barcha munosabatlarda birlamchiligi bilan ajralib turadi va o'zida mavzuga oid barcha jihatlarni uyg'unlashtiradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlardan foydalanishning qadimgi asoslari. Bu asosan, islom dinigacha bo'lgan davrlarni o'z ichiga olgan asarlarda (qo'lyozmalar, "Avesto" kitobi, tosh bitiklari va osori-atiqalarda) o'z aksini topgan

Ta'lim-tarbiya ajarayonida milliy-diniy qadriyatlar ta'sirining islomiy asoslari. Bu asoslar buyuk tafsirchilar, hadisshunoslar, mutassavuf olimlar qarashlarida, Kur'oni Karimda, Hadisi SHarifda hamda O'rta asr yozma manbalarida mujassamlashgan.

Ta'lim-tarbiya jarayonida insoniy qadriyatlar ta'sirining qomusiy allomalar hamda mumtoz adabiyot vakillari tomonidan yoritilishi va ularning g'oyalariga tayangan asoslar. Ushbu asoslar Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Muslihiddin Sa'diy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalar asarlarida o'z aksini topgan. Bu yo'nalishdagi asarlar orasida ayniqsa, Unsurul Maoliy Kaykovusning «Qobusnoma» didaktik asari muhim o'rin egallaydi. Unda ta'lim-tarbiya va milliy qadriyatlarning barcha qirralari o'ziga xos munosabatlar tarzida yoritilgan

Bolalarni milliy qadriyatlar asosida ma'naviy–axloqiy tarbiyalashning ma'rifatparvar jadidchilik g'oyalaridagi asoslari. Bu asoslar o'lkamizda Maxmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat asarlarida keng yoritilgan

Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning sho'ro davri asoslari. Bu asoslar sho'rolar davri me'yoriy hujjatlari va pedagogikaga oid asrlarida aks etadi

Ta'lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarni joriy etishning milliy istiqlol g'oyasi asoslari. Bu yo'nalish asoslari «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, “Kadrlar tayorlash milliy dasturi”, milliy istiqlol g'oyasida mujassamlashgandir

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotida oila va milliy qadriyatlarning rivojlanishi yonma-yon kechgan o'zaro bog'liq va uzluksiz jarayondir. Ularning rivojlanish shakllari turlicha kechgan bo'lsada, o'zining ijtimoiy–iqtisodiy asoslari jihatdan ularni bir qancha umumiyliklar bog'lab turadi. SHunday umumiyliklardan biri bu tarbiya sohasidir.

Sinf rahbari tarbiyaviy ishlar jarayonida qadriyatlardan foydalanishning mazmun-mohiyatini yurtboshimiz asarlaridagi g'oyalardan kelib chiqqan holda «O'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda komil inson etib tarbiyalash» jarayoni sifatida izohlash mumkin bo'ladi. SHundan kelib chiqqan holda kurs ishi mavzusini **“Sinf rahbari ishini milliy qadriyatlar bilan boyitish”**deb nomladik.

Tadqiqot maqsadi: sinf rahbari ishida milliy qadriyatlardan amaliy foydalanish yo'llarini belgilab olish hamda bu yo'nalishda o'ziga xos usullar o'rganish.

Tadqiqot vazifalari:

- 1.Mavzuga oid tarixiy, pedagogik, psixologik, uslubiy manbalarni o'rganish va muammo talqinida ulardan keng foydalanish;
- 2.Sinf rahbari ishini milliy qadriyatlar bilan boyitish orqali bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi masalalarini tahlil etish, uning imkoniyatlarini aniqlash;

3.Sinf rahbari ishida milliy qadriyatlardan foydalanishning usul va vositalarini ishlab chiqish;

Tadqiqot ob’ekti: Sinf rahbari ishida milliy qadriyatlardan foydalanish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Sinf rahbari ishini milliy qadriyatlar bilan boyitish mazmuni, shakllari, metodi va vositalari.

1. Sinf rahbari ish faoliyatini tashkil etishning shart-sharoitlari.

Sinf rahbari maktab o’qituvchilar jamoasi va pedagogika kengashining a’zosidir. Sinf rahbari va tashkilotchining burchi juda keng va ko’p tomonlamadir.

Sinf rahbari ishining asosiy qismi o'quvchilarni o'rganish, o'quvchilar bilim sifatini oshirish hamda ularning tartib intizomini mustahkamlash. Darsdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va ularni o'tkazish. O'quvchilarning ota-onalari bilan olib boriladigan ishlar ham maktab tashkilotchisi va sinf rahbarining asosiy vazifalaridan biridir.

O'quvchilar jamoasi – sinf rahbarining tayanchi. O'quvchilarni tarbiyalashda sinf jamoasidagi barcha o'quvchilarning bir-birlariga ta'sirlari katta ahamiyatga ega. Ularni bir-biriga ko'rsatadigan o'rnaklari intizomni yaxshilash va mustahkamlashga, ularni xulq madaniyatini, odatini, ko'nikmasini hosil qiladi.

Sinf rahbari bolalarni odobli qilib tarbiyalashni, ularga andisha bilan gapirishni, maqbul harakat qilishni o'rgatishi lozim.

Alisher Navoiy «Mahbub-ul-qulub» asarida ta'lim-tarbiya jarayonlarini, vositalarini, ahloq-odob talablarini ko'rsatadi. O'z davridagi musulmon maktablarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi. O'qituvchi odobi va muallimlik kasbi, mudarrislar, maktabdorlar va ta'lim berayotgan fanini va tarbiya jaaryonini sevishi kerak deydi. O'ziga xos o'quvchi jamiyatda obro'li va hurmatga loyiq insondir, deb hisoblaydi. SHogirdlar muallimni hurmat qilishlari, e'zozlashlari zarurligini uqtiradi.

Navoiyning fikricha, ba'zan bir kishi bitta bolaga tarbiya berishga ojizlik qiladi, muallim esa bir nechta bola-sinf jamoasini tashkil etadi va ilmu-adab o'rgatadi. Bu jarayonda sinf rahbari ko'p mashaqqatlarga duch keladi. SHuning uchun shogirdlar ustoz oldida umrbod qarzdor ekanliklarini his etishlari lozim. SHogird podsholik martabasiga erishsa ham muallimga qulluq qilsa arziydi.

Xaq yo'lida senga bir harf o'qitmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Sinf rahbari o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalar ekan, u o'z faoliyatida quyidagi talablarga rioya qilishi kerak:

- sinf rahbari o'quvchi ota-onasining mansabi, boyligiga qarab bolaga muomala qilmasligi lozim.

- sinf rahbari bolalarga ahloqiy normalarni o'rgatishi kerak.
- gerdayishi, manmanlik, ta'magirlik, nodonlik kabi illatlar o'qituvchi ahloqiga yod sifatlardir.
- xalq nazarida olim hisoblanadigan o'qituvchilar yomon ishlardan, fisku-fasoddan o'zlarini tiya bilishlari zarur.

Sinf rahbarining ota-onalar bilan to'g'ri muomila qila olishi murakkab, nozik ish. Chunki hozirgi ota-onalarning ko'pchiligi o'rta yoki oliy ma'lumotli kishilar, ular vaqtli matbuot, televidinie, radio orqali ko'pgina pedagogik axborotlarni bilib oladilar. SHunday vaziyatlar ham bo'ladiki, o'g'il yoki qiz bola maktabda o'zboshimchalik qiladi, lekin oilada hushyor va gapga quloq soladi, yoki aksincha. Oilada muomalasi qo'pol, o'zboshimcha, maktabda esa o'zini xushmuamola, intizomli tutadi. Buning sababi nimada? Bunday holatlarning hammasi uchun bir xil sabab va to'g'ri javobni topish amri mahol. Chunki har bir holatda uning sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Demak, sinf rahbari va ota-onalarning maqsadlari bir xil bo'lsa ham, ularning hamkorligi, bir-birini tushunishi, muomala munosabatlari qarama-qarshiliklarsiz bo'lmaydi.

Sinf rahbarining faoliyati kamol topayotgan kishi shaxsini tarkib toptirishga qaratilgandir. Bu faoliyatning natijalari tarbiyalanuvchining qiyofasida, uning shaxsidagi xususiyatlarida, xarakter va xulq-atvorida o'z aksini topadi. Agar tarbiyachi pedagog nimaga intilayotganini ravshan va aniq tushunilmagan joyda tarbiyalanuvchilar shaxsini takomillashtirishga astoydil intilish bo'lmaydi, balki tarbiyada o'tkaziladigan ish tasodifiy tusga ega bo'lib, buning uchun ajratilgan vaqtni to'ldirish uchungina olib boriladi. Tarbiya faoliyatining maqsadlarini aniq bilmagan va bu maqsadlarni hisobga olmagan holda to'la qimmatli tarbiya yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Ma'naviy-ahloqiy tarbiyaning maqsadi jamiyat talablariga bog'liq bo'lib, bu talablar o'z navbatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va jamiyatda yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishlarining hammasi yosh avlodda ma'naviy ahloq va e'tiqodni shakllantirishga, ularni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim.

Yoshlarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash tuzimini takomillashtirishda boshlang'ich maktab muhim o'rin egallaydi.

Ma'naviy ahloqiy tarbiya-ma'naviy ongni bir maqsadni ko'zlab tarkib toptirish, ahloqiy tuyg'ularni rivojlantirish hamda xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini hosil qilishdan iborat. Sinf rahbari o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashning quyidagi vazifalarini hal etishi kerak.

1) Tug'ilib o'sgan joyiga, O'zbekiston Respublikasiga yuksak muhabbat tuyg'ularini, uning tabiati va kishilar haqida, Vatanning himoyachilari va mehnat qahramonlari to'g'risida, ota-bobolarimiz, ularni dunyo tsivilizitsiyasiga qo'shgan hissalarini to'g'risida ko'proq bilishga intilishni tarbiyalash.

2) O'quvchilarda Vatanimizning boy tarixi, shuningdek boshqa mamlakatlar to'g'risida, tinchlik uchun kurash haqida chet ellardagi bolalar tashkilotlari haqida dastlabki tasavvurlarni hosil qilish.

3) Bolalarda o'rtoqlik tuyg'usini, boshqalarga yordam ko'rsatish ishtiyoqini, umumiy foyda yo'lida birgalikda faoliyat ko'rsatishga intilishni tarkib toptirish. Bolalar o'rtasida, o'g'il va qiz bolalar o'rtasida do'stona munosabatlarni rag'batlantirish, sohta o'rtoqlik ko'rinishlariga qarshi kurash olib borish lozim.

4) O'z so'zi va va'dasi uchun, o'qituvchi va kollektiv topshiriqlarining bajarilishi uchun ma'suliyat tuyg'usini tarbiyalash.

5) Bolalarda kishilarga to'g'ri munosabatni, keksalar, bemorlar, invalidlarga nisbatan e'tibor va g'amhurlikni, xushfe'l va betartib, kamtar va haqgo'y bulishini tarbiyalash.

O'quvchilarni barcha kishilarning yaxshi va yomon xatti-harakatlarini farqlay olishga, o'z xatti-harakatlariga va o'rtoqlarining xatti-harakatiga adolatli baho berishga o'rgatishi hamda o'z kuch g'ayratini o'quvchilarda nopoklik, adolatsizlik, kishilarga raxm-shafqatsiz bo'lishga nisbatan salbiy munosabatni tarkib topshtirishga qaratishi kerak.

O'quvchilarni tarbiyalash o'qitishga qaraganda ancha qiyin degan fikrni o'qituvchilar orasida tez-tez eshitish mumkin. Ma'naviy-ahloqiy tarbiya ta'lim

berish bilan mustahkam aloqada bo'lgani holda, o'zining xususiyatlariga ega. Ma'naviy-ahloqiy tarbiya o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashni barcha protsesslarini bilim berish va o'rgatish bilan birga qamrab oladi. Bunday ikkita o'zaro bog'langan tomon: hayotni bilish va unga bo'lgan munosabatni tarkib toptirish protsesslari ajralib turadi. Hayotni bilish ma'lumot olishning asosiy funktsiyasi, unga bo'lgan munosabatni tarkib toptirish tarbiyaning asosi, vazifasini tashkil etadi.

Sinf rahbari faqat ta'lim-tarbiyaning birligini emas, balki ularning xususiyatlarini ham ko'ra bilishi muhimdir. Maktabdagi tarbiya inson shaxsini tarkib toptirish yuzasidan olib boriladigan ulkan ishining bir qismi xolos, u bolaning ilgarigi tajribalarini hisobga olgan holda tashkil etiladi, undagi barcha yaxshi sifatlarni o'stirib, noto'g'ri tasavvurlar, odatlarni tuzatib borishi va bo'lajak sifatga zamin tayyorlashi kerak. Ma'naviy-ahloqiy tarbiya o'quvchi maktabni tamomlagandan keyin ham to'gallanmaydi, u butun umr bo'yi davom etadi.

Ma'naviy-ahloqiy tarbiya-ta'lim berish bilan bog'liq bo'lgani holda, o'z xususiyatlariga, o'ziga xos vazifalari, uni tashkil etishning forma va metodlariga ega bo'lib, maxsus ravishda o'rganilishi lozim.

O'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashning muhim sharti sifatida ularning o'quv va o'qishdan tashqi xilma-xil faoliyatlarining birligi to'g'risidagi tushunchalar bilan bog'liqdir.

O'quv va ma'naviy-ahloqiy tarbiya faoliyati bir-birlarini to'ldirish lozim: Sinf rahbari tomonidan tarbiyaviy bosqichga rahbarlik qilingan taqdirdagina tarbiyada biror maqsadga qaratilganlik, ma'lum bir sistemaning bo'lishi mumkin. Ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash avvalo tarbiyalanuvchi shaxsining tarkib topish protsessiga rahbarlik qilishni taqozo etadi.

Biror maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonda tarbiyalanuvchilarning jismoniy hamda ma'naviy-ahloqiy yetukligi o'sib borishiga qarab ularning mustaqilligi va ijodiy faolligi ortib boradi. O'quvchilar jamoasining ongliligi ortib borishi bilan

tarbiyachining vazifalari o'zgaradi. Tarbiya davomida tarbiyalanuvchining qarashlari, hayotiy nuqtai nafari asta-sekin tarkib topadi.

Hozirgi davrida maktab va uydagi o'quv-tarbiya ishlarini amalga oshirayotgan pedagogik jamoa oldiga juda katta vazifalar qo'ymoqda. Maktab yosh avlodni dunyoqarashini tarkib toptirish, g'oyaviy, siyosiy jihatdan chiniqtirish, yuksak axloqiy fazilatlarga ega qilish, mehnatiga va ongli kasb tanlashga tayyorlash lozim. Bu vazifalarni hal qilishda sinf rahbari va tashkilotchi muhim rol o'ynaydi. Chunki, u bir sinf sharoitida tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlarni tashkil etadi va boshqaradi.

Sinf rahbari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O'ziga yuklatilgan sinfdagi tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. Bu vazifani bajarayotganda u yolg'iz emas, shu sinfda dars berayotgan turli fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda va ularga suyangen holda o'quvchilarda milliy dunyoqarash asoslarini shakllantiradi, axloqiy tarbiyasini rivojlantiradi. O'quvchilarni darsdan tashqari tadbirlarni tashkil etadi va sinf jamoasini mustahkamlaydi.

2. O'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqish va qobiliyatini o'stirish har bir o'quvchining individual-psixik xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbga yo'naltirish va hayotiy maqsadlarini shakllantirish sinf rahbarining alohida vazifasidir. Ayni paytda har bir o'quvchining sog'ligini mustahkamlashga ham e'tibor beradi.

3. Sinf rahbarining diqqat markazida o'quvchilarning yuqori darsda o'zlashtirishini ta'minlash masalasi turadi. Buning uchun u har bir o'quvchining kundalik o'zlashtirishidan voqif bo'lib turadi. Orqada qolayotganlarga o'z vaqtida, kechiktirmay yordam uyushtiradi.

4. Sinfdagi o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ishlarini yo'naltiradi, ular ishtirokida sinf jamoasining ijtimoiy foydali ishlardagi ishtirokini ta'min etadi, maktab miqiyosida uyushtirilayotgan muhim tadbirlarda o'z sinfining faol qatnashishini ta'minlaydi.

5. Sinf o'quvchilarining ota-onalari, kuni uzaytirilgan guruhlarining tarbiyachilari, korxonalar va muassasalardagi, turar joylardagi otaliqqa oluvchilar bilan yaqin aloqaga o'rnatadi.

6. Sinf rahbari shu sinfdan dars berayotgan barcha fan o'qituvchilari o'rtasida o'quvchilarga nisbatan yagona talablar o'rnatilishiga erishadi, ota-onalarga pedagogik bilimlar tarqatib, oila bilan maktab o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi.

7. Sinf rahbari o'z sinfidagi turli hujjatlarini; sinf jurnali, o'quvchilarning kundaliklari, tabellar, shaxsiy ma'lumotlari, turli xil reja va hisobotlarni yuritadi.

Ko'rinib turibdiki, sinf rahbarining vazifalari keng va murakkab, ularni muvaffaqiyatli hal qilish sinf rahbarining shaxsiy sifatlariga ham bog'liqdir. Sinf rahbarining shaxsiy sifatlariga qo'yiladigan talablar o'qituvchiga qo'yiladigan talablardan farq qilmaydi. Lekin, sinf rahbari asosiy tarbiyachi, bolalar ma'naviy jihatdan andoza oladigan shaxs bo'lganligi uchun ham, bu talablar uning shaxsiy fazilatiga aylanib ketishi bilan tarbiyada alohida rol o'ynaydi.

O'quvchilarni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish, ularda faol hayotiy mavqeni shakllantirish, o'zlashtirish va bilim sifatini oshirish ko'p jihatdan kuni uzaytirilgan guruhlarining samarali ishlashiga bog'liqdir. Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatini to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi, to'g'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarish bilan bog'lanishiga zamin yaratadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko'p qirralidir. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish.

2. O'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ko'p qirrali ishlarni o'quvchilar tashkilotlari sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish.

3. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik

qilgan holda o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalari, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish.

4. Umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish.

5. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish. Bu borada tashkilotchilar faolligini uchta asosiy tomonini ko'rish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va ma'muriy.

Bular ko'pincha o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi. Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator kishilarni kiritish mumkin:

1. Tarbiyaviy ishlar sohasida erishgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish.

2. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniqlash.

3. Tarbiyaviy, ommaviy, siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash.

4. Sinfdan, maktabdan tashqari ishlarni rejalashtirish, guruhlashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash, boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi. SHu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi. O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib turli kishilar bilan muayan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatga duch keladilar. SHuning uchun ham o'quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik munosabat doirasi keng va ma'naviy o'sishi samarali bo'ladi. Maktabdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar jamoadagi ishlarni o'rganadilar. Ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar. Ishlab

chiqarish mehnatiga qo'shiladilar. Jamoatchilik fikriga bo'ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga o'tlanadilar. Maktabdan tashqari faoliyatga quyidagilar kiradi:

1. Og'zaki ish usullari: majlislar, yig'inlar, ma'ruzalar, kutubxonalar, konferentsiyalar, munozaralar, uchrashuvlar, gazetalar, radio va jurnallar.
2. Amaliy ish olib borish usullari turli joylarga sayyohatlarga, sport musobaqalari, tabiatshunoslar to'garaklari, shanbaliklar, yangi kitoblar ko'rgazmalari.

Tarbiyaviy ish pedagogikadan butun qobiliyatlarni ishga solishga taqozo etadi. Sinf rahbarligi kursi bilan maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasi kursi bir-biriga bog'liq va uning davomiyligidir.

Yuqoridagi qayd etilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilar turli qo'llanmalar, asboblari, apparatlar, didaktik materiallardan foydalanishni o'rganadilar, o'z-o'zini tekshirish uchun turli ma'lumot va tayanch materiallarini jalb etish ko'nikmalarini egallaydilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishni rejalashtirish bolalarning yosh xususiyatlariga, maktabning joylashgan shart-sharoitlariga, ijodiy birlashmalariga, ilmiy markazlar bilan o'zaro aloqasi kabi ishlarni inobatga oladi. Direktor o'rinbosarining faoliyati, o'z ifodasini topgan xujjatlar ro'yxati, xalq ta'limi tomonidan doimiy ravishda berilib boriladi.

Tarbiyaviy ishlarning sifat va samaradorligi, avvalo tarbiyachining g'oyaviy ishonchiga va siyosiylikining darajasiga bog'liq. Buning uchun sinf rahbari fan yangiliklarini muntazam, egallab borishi bilan o'zining bilimini, ongini oshiradi.

Sinf rahbarining axloqiy obro'si g'oyat darajada yuqori bo'lishi ham bu o'rinda muhimdir. Sinf rahbari ana shundagina tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga ega bo'ladi. Tarbiyachining shaxsiy fazilatlari, ma'naviy qiyofasi o'quvchilar ongining va xulqining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Sinf rahbari uchun malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishni o'zi yetarli emas. U o'z tarbiyaviy faoliyatida yuksak darajadagi insonparvarlik fazilatlari, o'z ishiga sadoqati, intizomi, odamiyligi, axloqiy sifatlari bilan ham ta'sir o'gkazadi. Chunki, tarbiyachilik qobiliyati juda

ko'p sifatlarni: chuqur bilim, keng fikrlilik, ishga jon dildan ko'ngil qo'yish, bolalarga bo'lgan cheksiz, muhabbat muomala nazokatlilik, qalb yoshligi, serzavq temperament, oqil va adolatlilik namunasi, alohida nazokat sipolik va vazminlik kabi fazilatlarining bo'lishini taqozo qiladi. Bunga yana tarbiyachilik texnikasi qo'shimcha ishda muvaffaqiyat ta'minlanishi tabiiydir. Tarbiyachilik texnikasi sinf rahbarining asosiy qurolidir.

Sinf rahbarlaridan madaniyat darajasining kengligi, pedagogik odob talablariga rioya qilish, har bir bola shaxsini inson sifatida hurmat qilish bilan unga nisbatan talabchanlikni unutmaslik, tashkilotchilik malakalariga ega bo'lish, o'z muomolasini tinimsiz oshirib borish bilan ishga ijodiy yondashish talab qilinadi. Muhimi shundaki, sinf rahbarining o'zi bolalarni tarbiyalamoqchi bo'lgan g'oyaviy-axloqiy barkamollikka mos bo'lishi kerak. Tarbiyadagi xatolarning ko'pchiligiga asosiy sabab, bolaning oldiga qo'yilayotgan talablar tarbiyachi harakterida hamisha ham namoyon bo'lavermasligidadir.

Sinf rahbarining faol jamoatchi sifatida hamisha namuna ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega. Ayni vaqta u kommunikativ qobiliyatga ega bo'lishi, ro'y berayotgan voqea va hodisalarni faqat pedagogik qoidalarga bog'lab baholashgina emas, balki ro'y berishni sababiga qarab hukm ham chiqarishni, ijod qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.; Sinf rahbari maktabdagi eng yetuk pedagog hisoblanib, u bajaradigan mehnatining o'lchovi, chegarasi yo'q. Uning bilmagan ishi uddasidan chiqa olmaydigan sohasi bo'lmaydi. SHu bilan bir qatorda, u beg'araz, xolis shaxs bo'lib, jamoatchilik asosida ishlaydp. Sinf rahbari pedagoglar, ota onalar va o'quvchilarni o'zaro bog'lovchi shaxs sifatida barcha tomonlarining nuqtai nazarini hisobga olishi, harakatlarni bir markazga birlashtirish, o'zaro aloqalarning to'g'ri bo'lishiga ta'sir o'tkazish va ayni vaqtda o'zining o'rnini aniq ta'minlay olishi kerak. Mana shu fazilatlar sinf rahbarining tarbiyaviy ishlari samarasini oshirishga va uning muvaffaqiyatini ta'minlashga garov bo'ladi. Sinf rahbari o'quvchilarga puxta bilim berishga, ularni fikrlash qobiliyatini faollashtirishga hamisha g'amxo'rlik qilib boradi. Hatto o'zlashtirish

yuqori bo'lgan sinflarda ham bolalarda ilmga bo'lgan qiziqish va muhabbatni o'stirishga, ta'lim sifatini oshirishga harakat qilish zarur.

Ayrim maktablarda yuqori o'zlashtirishga erishishga o'quv, didaktik masala sifatida maktabda ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishga bog'liq bo'ladi. O'qish jarayonida bolalarda mehnatsevarlik, diqqatni, matonat kabi sifatlarni tarbiyalash bilimni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga yordam beradi.

Maktabda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar sistemasi to'g'ri va bevosita sinfda o'zlashtirishni ko'tarishga ta'sir etadi. Sinf rahbari o'qituvchilar bilan hamkorlikda bolalarni o'qishga ongli munosabatda bo'lishga o'rgatadi. O'quvchilarning o'qishlarini nazorat qiladi, darslarga kiradi, kuzatadi va o'z sinfidagi o'quvchilar bilan birgalikda sinfda o'quv ishlarining sifatini oshirish chora-tadbirlarini belgilaydi. Yuqori sinflarda yuqori o'zlashtirish uchun ko'rish susaymaydi, aksincha u yana ko'proq ahamiyat kasb etib boradi.

1. O'quv mehnatiga ongli munosabatda va unga ma'lumot bilan yondashish hissini tarbiyalash bilimning sifatli bo'lishi bolaning o'qishga bo'lgan intilishiga qiziqishiga ularning harakatchanligiga, diqqatiga faoliyatiga tashabbuskorligiga, mustaqilligiga bog'liqdir. Bunday sifatlarni o'quvchilarda shakllantirish ularga o'quv mehnatining ijodiy ahamiyatini tushuntirish va o'quv mashg'ulotlariga mas'uliyat bilan yondashishni o'quvchilardan talab etish sinf rahbarining faoliyatida muhim o'rin egallaydi. Sinf rahbari o'quv jarayonini ijtimoiy foydali mehnat bilan bog'lash o'qish bilan hayot o'rtasidagi, mehnat faoliyati o'rtasidagi aloqani ko'rsatish, vatanni himoya qilish hissini tarbiyalash orqali erishiladi.

2. Har narsani bilishga qiziqish va bilimga muhabbat uyg'otish.

Bola bilimga qiziqmay turib, o'qishga intilmay turib, muvaffaqiyatli o'qiy olmaydi. Birinchi navbatda qiyinchilik bilan o'zlashtirilgan fanlariga nisbatan bolaning qiziqishini uyg'otish kerak. Boladagi o'qish, mehnatga nisbatan havas va qiziqish o'qishidagi qiyinchiliklarni yengishga, bilim faoliyatini oshirishga qiziquvchanlik va mustaqilligini kamol topishiga olib keladi.

3. O'quv mehnati madaniyatini oshirish.

O'zlashtirishning past bo'lishi aksariyat, o'quv jarayonini sistemali va rejali olib borish iqtidorli bolalarni shakllaniga olib keladi.

Sinf rahbarining va o'qituvchining asosiy vazifasi har bir o'quvchining fikrlashga o'rgatishdan iboratdir. Ayniqsa bolalarda o'qish qiyinchiliklarini yengish, tushunib o'qish va kitob bilan mustaqil ishlash uy vazifalarini bajarishda rioya qilishni olgan bilimlarini, amalda qo'llash kabi bilim olish uchun zarur bo'lgan sifatlarini shakllantirish katta ahamiyatga egadir. O'quvchilarning aqliy va jismoniy o'sishiga madaniyatli bo'lib harakat qilish va hamisha bu haqda g'amxo'rlik qilish lozim.

4. O'quvchilarni o'quv mehnatida muayyan rejaga itoat etishga o'rgatish.

O'quv mehnati bilan dam olishni to'g'ri tashkil etish, tashkiliy ravishda uy vazifalarini bajarish ta'lim samaradorligini oshiradi. O'quvchilar rejimga itoat etishlarini o'qituvchi, sinf rahbari va ota-onalar muntazam ravishda nazorat qilib borishlari kerak. SHu yo'l bilan ularni muvaffaqiyatli o'qishga, o'quv mehnatida saramjonlikka o'rgatish mumkin.

5. O'qish jarayonida o'rtoqlariga yordam berishni uyushtirish.

O'rtoqlariga o'zaro yordam, sinfda ulgurmovchilikni, maktabni tashlab ketish hollarining oldini olishga yordam beradi. SHu bilan birga sinfda o'rtoqlik do'stlik va bir jamoa bo'lib shakllanishiga olib keladi.

6. Sinf o'quvchilari bilan alohida bo'lishi va yaxshi hamkorlik.

Sinf rahbari ta'lim-tarbiyaviy ishlarni yakka o'zi emas, balki shu sinflarda dars beruvchi boshqa o'quvchilar bilan hamkorlikda hal etadi. O'quv ishlarida sinf rahbarining va shu sinfda ishlaydigan boshqa o'qituvchilarning bir yoqadan bosh chiqarib ishlashi, o'quvchilarga nisbatan yagona talabni amalga oshirish va o'quvchilarning bir-biriga o'zaro yordamlari ta'lim-tarbiya sifatini oshiradi.

Tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbarining faoliyati ko'p qirrali va sermazmundir. Sinf rahbari rahbarlik qilayotgan sinf o'quvchilarini tarbiyalash

bilan bir qatorda o'quv yili yoki chorak davomida nimalar qilish kerakligi bolalar hayotini nima bilan band qilish va tanlangan ish turini qanday amalga oshirishni bexato aniqlash kabi ancha murakkab muammoni yechadi. Bu borada sinf rahbariga turli xil manbalar yordam beradi. O'quvchilarning ayrim hatti-harakatlariga bu hatti-harakatlar namoyon bo'lishini tashkil etishi tajribalarini o'rganish va tahlil qilish asosida o'quvchilarni o'rganishda amal qilishi lozim bo'lgan talablarni shunday ifodalamoq mumkin.

Bolalarni o'rganish ularga tarbiya va ta'lim berish sifatini oshirish lozim. O'quvchilarni muntazam tarzda o'rganish asosida boshlang'ich jamoaga hamda alohida o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishining yanada samarali usul va metodlarini tanlab olishga ijodiy yondashish mumkin bo'ladi.

O'quvchilarning individual xususiyatlari, mayllari hamda qiziqishlarini qayd qilib borish bilangina cheklanib qolish noto'g'ri bo'ladi. Bu o'rganish asosida o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, bular bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni tashkil etish muhimdir. O'z o'quvchilarini yaxshi o'rganish demak, tashqi tomoniga emas, balki ular hulq-atvor sabablarini o'rganishga e'tibor bermoq darkor.

O'quvchilarni tabiiy hayot va o'quv faoliyati sharoitida o'rganish.

O'quvchi ta'lim jarayonida ijtimoiy foydali maslahatga va jamoat ishiga o'rganishi lozim. O'qituvchilarning o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi bilan, otalar va tevarak atrofidagi kishilar bilan kirishadigan munosabatlarini o'rgatish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu munosabatlar jarayonida shaxsning yanada to'la ochiladi. O'quvchilarni tibbiy ish va kundalik hatti-harakat jarayonida o'rganish o'quvchiga haqiqiy baho berishga yordam beradi.

Yuqori sinflarda yuqori o'zlashtirish susaymaydi, aksincha u yana ko'proq ahamiyat kasb etib boradi.

1. O'quv mehnatiga ongli munosabatda va unga ma'lumot bilan yondashish hissini tarbiyalash bilimning sifatli bo'lishi bolaning o'qishga bo'lgan intilishi, qiziqishiga ularning harakatchangligiga, diqqatiga faoliyatiga tashabbuskorligiga,

mustaqilligiga bog'liqdir. Bunday sifatlarni o'quvchilarda shakllantirish, ularga o'quv mehnatining ijodiy ahamiyati tushuntirish va o'quv mashgulotlariga mas'uliyat bilan yondashishni o'quvchilardan talab etish sinf rahbarining faoliyatida muhim o'rin egallaydi. Bunga esa ularning o'qishdagi har bir yutig'ini ijtimoiy foydali mehnat bilan bog'lanish o'qish bilan hayot o'rtasidagi mehnat faoliyati o'rtasidagi aloqalini ko'rsatishi, vatanni himoya qilish hissasini tarbiyalash orqali erishiladi.

2. Har narsani bilishga qiziqish va bilimga muhabbat uyg'otish.

Bola bilimga qiziqmay turib, o'qishga intilmay turib, muvaffaqiyatli o'qiy olmaydi. Birinchi navbatda qiyinchilik bilan o'zlashtirilgan fanlariga nisbatan bolaning qiziqishini uyg'otish kerak. Boladagi o'qish mehnatiga nisbatan, mehnatga nisbatan havas va qiziqish o'qishdagi qiyinchiliklarni yengishga, bilim faoliyatini oshirishga qiziquvchanlik va mustaqilligini kamol topishiga olib keladi.

3. O'quv mehnati madaniyatini oshirish.

O'zlashtirishning past bo'lishi aksariyat, o'quv mehnatini sistemali va rejali olib borish iqtidorli bolalarda iqtidorini shakllanishiga olib keladi. Sinf rahbarining va o'qituvchining asosiy vazifasi har bir o'quvchining fikrlashga o'rgatishdan iboratdir. Ayniqsa bolalarda o'qish qiyinchiliklarini yengish, tushunib o'qish va kitob bilan mustaqil ishlash uy vazifalarini bajarishda rioya qilishni olgan bilimlarini, amalda qo'llash kabi bilim olish uchun zarur bo'lgan sifatlarini shakllantirish katta ahamiyatga egadir. O'quvchilarniyag aqliy va jismoniy taraqqiy etishga madaniyatli bo'lib harakat qilish va hamisha bu haqda g'amxo'rlik qilish lozim.

4. O'quvchilarni o'quv mehnatida muayyan rejaga itoat etishga o'rgatish.

O'quv mehnati bilan dam olishni to'g'ri almashtirib borish, tashkiliy ravishda uy vazifalarini bajarish ta'lim samaradorligini oshiradi. O'quvchilar rejimga itoat etishlarini o'qituvchi, sinf rahbari va ota-onalar muntazam ravishda nazorat qilib borishlari kerak. SHu yo'l bilan ularni muvaffaqiyatli o'qishga, o'quv mehnatada saramjonlikka o'rgatish mumkin.

5. Sinfda o'qish jarayonida o'rtoqlarga yordam uyushtirish. O'rtoqlarga o'zaro yordam, sinfda ulgurmovchilikni, ikki yillikni va maktabni tashlab ketish hollarining oldini olishga yordam beradi. SHu bilan birga sinfda o'rtoqlik do'stlik va bir jamoa bo'lib shakllanishiga olib keladi.

6. Sinf o'quvchilari bilan alohida bo'lishi va yaxshi hamkorlik.

Sinf rahbari ta'lim-tarbiyaviy ishlarni yakka o'zi emas, balki shu sinflarda dars beruvchi boshqa o'qituvchilar bilan hamkorlikda hal etadi. O'quv ishlarida sinf rahbarining va shu sinfda ishlaydigan boshqa o'qituvchilarning bir yoqadan bosh chiqarib ishlashi, o'quvchilarga nisbatan yagona talabni amalga oshirish va o'quvchilarning bir-biriga o'zaro yordamlari ta'lim -tarbiya sifatini oshiradi.

2.Tarbiyaviy ishlar tizimida milliy qadriyatlarni o'rni

Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy tarixiy va madaniy merosimiz, milliy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida keng fikrli, sog'lom, jismoniy, akliy va ma'naviy jihatdan barkamol, iqtisodiy islohotlarning mohiyatini tushunadigan hamda ularni yangi ijtimoiy munosabatlar orqali hayotga tatbiq eta oladigan, milliy g'oya va istiqlol mafkurasi mustahkam bo'lgan shaxslarni shakllantirish sinf rahbari faoliyati maqsadining asosini tashkil etadi.

Qadriyatlar inson uchun ahamiyatli bo'lgan millat manfaatlari yo'lida xizmat qiladigan erkinlik, ijtimoiy adolat, tenglik, haqiqat, ma'rifat, go'zallik, yaxshilik, halollik, burchga sodiqlik singari fazilatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Qadriyatlar o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Bular: tabiiy qadriyatlar (yashash uchun zarur bo'lgan tabiiy shart-sharoitlar); iqtisodiy qadriyatlar (ishlab chiqarish kuchlari va vositalari); ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar (erkinlik, tenglik, adolat, tinchlik, xamkorlik); ilmiy qadriyatlar (bilimlar, tajribalar, yutuqlar); falsafiy qadriyatlar (g'oyalar, mafkuralar, kontseptsiyalar); badiiy qadriyatlar (san'at, adabiyot, madaniyat); diniy qadriyatlar (iymon, e'tiqod, vijdon, savob) kabi qadriyatlarni qayd etish mumkin bo'ladi. SHu bilan birga fanda qadriyatlarning m i l l i y va u m u m i n s o n i y turlarga ajratilishi an'ana tusiga kirgan.

Milliy qadriyatlar ma'lum bir millat, xalq va elatlarning o'z tarixiy taraqqiyotida yaratadigan barcha moddiy va madaniy (ma'naviy) boyliklari yig'indisidan iboratdir.

Umuminsoniy qadriyatlar tabiatni muhofaza qilish, madaniyatni rivojlantirish, inson sog'ligini saqlash, oziq-ovqat bilan ta'minlash, energiya-yoqilg'i tanqisligining oldini olish, turli tahdidlarni bartaraf etish, tsivilizatsiya taraqqiyotini davom ettirish kabi sohalarni o'zida mujassamlashtiradi.

Qadriyatlar turli-tuman bo'lishi bilan birga «dunyoda eng oliy qadriyat -

inson» hisoblanib, qolgan barcha qadriyatlar unga xizmat qiladi. Inson qadriyatining ma'naviy, tarixiy hamda ta'limiy jihatlari o'ziga xos yangicha fikrlash va yondoshishlar asosida yurtboshimiz asarlarida batafsil yoritilgandir.

O'quvchi-yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, xalqimizning boy tarixiy, madaniy va ma'naviy merosi asosida ularni vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, iymon-e'tiqod, mehr-shafqatlilik kabi insoniy fazilatlar misolida har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalaydi;

O'rta Osiyo mutafakkirlaridan Farobiy, Abu Ali Ibn Sinolar ham inson tarbiyasiga ta'sir etadigan omillar ahamiyatiga e'tibor berib kelganlar.

Farobiy inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: «munosib inson» bo'lishi uchun odamda ikki imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa, bu kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yashirishga olib boradigan yullar deydi. Abu Ali ibn Sino etika va axloqiy tarbiya masalalarini falsafiy pedagogik asosda yoritib berishga yordam beradi.

Xalq – axloqiy qadriyatlar bo'lib, u qimmatli an'analar ijodkori. Xalq qadriyatlar va an'analarni o'zining ozodligi uchun olib borgan kurashlardan mardonavor ijod qildi, ularni tolmas mehnatda, chet el bosqinchilari bilan qilgan janglarida qadraladi va e'zozladi.

Qadriyatlarning ijtimoiy, siyosiy, axloqiy mazmuni turli tarixiy davrlarda ayniqsa keskin sinfiy kurashlarda yaqqol ko'rindi. Ommaviy xalq harakatlari, inqilobiy janglar avj olgan davrda ham kishilar ijtimoiy qiziqishlar bilan yashaganlar.

Qadriyatlarni o'rganishda ular qanday tarixiy sharoitda va qaysi sinf tomonidan yaratilganinini, kimlarga xizmat qilganini, kimning manfaatini yoqlaganini va qaysi sinfnings hukmronligini mustahkamlaganini ko'ra bilishi kerak.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani milliy qadriyatlar asosida shakllantirishda ularning yuzaga kelishi va rivojlanishini bilish hamda ularni tarbiya jarayonida qo'llash o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni shartli tarzda quyidagicha

ifodalash mumkin bo'ladi:

Qadimgi qadriyatlar.

Bu arxeologik asori-atiqalar va obidalarni o'zida mujassamlashtiradi. Bularni o'rganish bo'yicha ekskursiyalar bolalar tarbiyasining asosiy usullaridan hisoblanadi.

Islomgacha bo'lgan milliy-madaniy qadriyatlari.

Bular zardo'shtiylik-Avesto asoslari, qadimgi tarixiy ma'lumotlar (Tumaris, SHiroq afsonalari) va qadimgi turk bitiklarini o'zida mujassamlashtiradi.

Bular orqali tarbiyalash ushbu ma'lumotlarga oid hikoyalar, filmlar, ma'ruzalar yetkazilishini o'zida aks ettiradi.

3. Islomiy qadriyatlar.

Bu qadriyatlar o'zida Qur'oni Karim, Hadisi SHarif, Tafsifchilik, Fikxshunoslik, tasavvufchilik asoslarini hamda islomiy obidalarni o'z ichiga oladi.

Bularni bolalar tarbiyasida qo'llash turli xil izohlar, ilovalar, da'vatlar (savobchi da'vat), pand-nasihatlar, qiziqarli kitoblarni o'qib berish, mazmunli hikoyalar, namunali voqealar, ogohlantiruvchi voqealar, obidalarga sayohatlar, allomalar hayotini yoritish, filmlar, islomiy yodgorliklarni asrab-avaylashni shakllantirish kabilarni o'zida mujassamlashtiradi.

4. Mumtoz adabiyot qadriyatlari.

Bu mumtoz yozuvchi. shoir va adiblarning hayot iva ijodi bilan bog'liq ma'lumotlar hamda ularning asarlari, qoldirgan adabiy-badiiy meroslarini o'z ichiga oladi. Bularni bolalar tarbiyasida qo'llash, shu allomalar hayot iva ijodining tarixini ularga yetkazish, mumtoz adabiyot asarlarining mazmun mohiyatini bolalarga qiziqarli yoritib berish hamda ularning tarbiyaviy jihatlarini bolalarga yetkazish orqali amalga oshiriladi.

5. Qomusiy allomalar ilmiy - madaniy meros qadriyatlari.

Bular o'z ichiga qomusiy allomalar hayoti-ijodi bilan bog'liq tarixiy ma'lumotlarni, ularning asarlarini hamda jahon ilmiga qo'shgan buyuk xizmatlari va ularning umumbashariy ahamiyatini jamlaydi. Bu qadriyatlar mutolaasi, filmlar hamda allomalar asarlarini birgalikda o'rganish sifatida singdirishi mumkindir.

6. Tarixiy sulolalar tarixi (Samoniylar, Xorazmshoxlar, Temuriylar, SHayboniylar, Mangitlar, Qo'ng'iroq tarixi) bilan bog'liq madaniy meros qadriyatlari.

Bu tarixiy sulolalar tarixi, ular tomonidan yaratilgan me'morchilik obidolari hamda ular tomonidan qoldirilgan boshqa madaniy meros yodgorliklar tarbiyasida foydalanishi turli xil tarixiy ma'lumotlarni bolalarga yetkazish, qiziqarli tarixiy filmlar qo'yib berish, tarixiy memuar asarlar bilan tanishtirish va tarixiy muzey-yodgorliklarga sayohatlarga bolalarni olib borishni o'z ichiga oladi.

7. Tarixiy etnografiya ma'lumotlari.

Bular xalqimizga xos bo'lgan tarixiy an'analar, urf-odatlar, to'y-markalar, qadriyatlar, me'morchilik obidolari, xalq amaliy san'at (hunarmandchilik sohalari) buyumlari, muzeylar materiallari (numizmatika-tangashunoslik, yuvelir-zargarlik, torevtika-pandanorlik materiallar, asarlar va .h.z) kabilarni o'zida mujassamlashtiradi.

Bulardan oilada bolalar tarbiyasi uchun foydalanish kitoblar mazmunini yoritish, ko'rgazma-muzeylarga sayohatlar uyushtirish, xalq bayramlarida ishtirok etish, urf-odatlar saqlashishi hamda ularga itoat etishni bolalardan talab qilish, bolalarni mashhur ustozlarga shogird berish kabilarni o'z ichiga oladi.

8. Tarixiy-pedagogik meros qadriyatlari.

Bu milliy pedagogika tarixiga oid bo'lgan allomalar, shoirlar, jadidlar, ziyolilar va davlat arboblarning asarlari, tarixiy meroslari hamda g'oyaviy qarashlaridan iboratdir. Bunda ayniqsa ilmiy-marifiy va didaktik pand-nasihat asarlarining ahamiyati kattadir. Bular bolalar ma'naviy axloqiy tarbiyasiga izohlar, ilovalar, hikoyalar, filmlar hamda pand-nasihatlar orqali yetkazilishi mumkin.

9. Xalq og'zaki ijodi meros qadriyatlari.

Bular ertaklar, dostonlar, qissalar, hikoyalar, topishmoqlar, ashulalar, chistonlar va o'gitlar sifatida bizgacha yetib kelgan. Bular orqali bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etish turli xil suhbatlar, tez aytishlar, aqliy uyinlar va mushoiralar sifatida amalga oshirilishi mumkin.

10. Xalq milliy o'yinlari meros qadriyatlari.

Bunga xalqimiz orasida tarqalgan milliy o'yinlar kiradi va ularni bolalar tarbiyasida qo'llashda «Oq terak», «CHillak» , «Sokka tashash», «Kim o'zar?», «CHuv ketdi» kabi turli xil o'yinlar sifatida amalga oshiriladi. Bolalarni kurash bo'yicha yirik musobaqalar hamda xalq ko'pkarilariga olib borish ham bu sohada muhim ahamiyatga egadir.

11. Milliy san'at qadriyatlari.

Bular xalqimiz milliy san'ati bilan bog'liq musiqa, teatr, askiya, aytishuv, mushoira, raqs va san'at darajasiga ko'tarilgan mehnat an'alarini o'z ichiga oladi. Bulardan bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda kontsert, spektakl, askiya kechalari va noyob san'at ob'ektlariga sayohatlarga borishdan foydalanish mumkin bo'ladi.

12. Umumxalq tadbirlaridagi tarixiy qadriyatlar.

Bunga umumxalq milliy bayramlari (Navro'z, Mehrjon) tadbirlari (hashar, ko'maklar), to'ylar (sunnat to'yi, nikoh to'yi, uy to'yi, mo'lchal to'yi), ma'rakalar (xatni qur'on, janoza) kabilar kiradi. Bular orqali bolalar ma'naviy-ahloqiy tarbiyasini shakllantirish ularni shu marosimlardagi ota-onalar nazoratidagi ishtirokida va kuzatish orqali amalga oshiriladi.

Bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini milliy qadriyatlar asosida shakllantirish, vatanparvalik, jamoatchilik, erk, ozodlik, adolatparvarlik, mardlik, do'stlik, tarbiyalilik, axloqiylik, or-nomus, halollik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat kabi ko'nikmalarning ular tarbiyasida vujudga kelishi bilan bog'liqdir.

3. Sinfidan tashqari ishida milliy qadriyatlardan foydalanishning shakl va metodlari

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida erishgan yutuqlarimiz, istiqbol g'oyalari bilan sug'orilgan ko'rgazmali targ'ibot vositalarini shakl va mazmun jihatidan rang-barangligini ta'minlash, xalq og'zaki ijodi namunalarini tashkil etish va ularning ijodlari asosida hujjatli filmlar yaratish va ularni har bir bola qalbiga kirib borishini ta'minlash ma'naviy barkamol fuqarolarni tarbiyalashda muhim

vosita hisoblanadi.

Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish, ma'naviy tubanlik, zo'ravonlik kabi illatlarni batamom yo'q qilishga erishish maqsadida har bir idora va tashkilotda, ta'lim-tarbiya muassasalarida, jamoa xo'jaliklarida maxsus «ma'naviyat kunlari» va «ma'naviyat saboqlari» ni tashkil etish, undan tashqari -o'quvlarini muzey, tarixiy qadamjolarga sayohatlar, mehnat qahramonlari, tarixiy va taniqli shaxslar bilan uchrashuvlar o'tkazish; ijodkor oilalar, yoshlar klublari tashkil etish; ajdodlarimiz madaniy merosi, urf-odatlar, tuy va motam marosimlari, xalq og'zaki ijodi, o'zbek milliy hunarmandchilik namunalarini yig'ish, o'rganish va kelgusi avlodlarga yetkazish maqsadida ekskursiyalar uyushtirish sinf rahbari ishini boyitishda, ma'naviy yuksak avlodni shakllantirishda ijobiy o'rin tutadi.

1. Milliy qadriyatlarni namoyish etish usullari:

- fotolavhalar namoyishi;
- illyustratsiyalar namoyishi;
- milliy qadriyatlarning o'zgarish, rivojlanishi kuzatish usullari.

2. Amaliy usullar:

- bolalar bilan hamkorlikda mehnat, osori –atiqalar, obidalar, eski qo'lyozma yoki kitoblarni asrab-avaylash;
- bolalarni turli tarixiy obidalar va ziyoratgohlarga olib borish;
- xalq milliy bayramlarida va yirik umumxalq tadbirlarida ishtirok etish.

3. Milliy adabiyot, tarix, san'at va madaniyatga oid asarlarni o'rganish usullari:

- bolalarga milliy adabiyot, tarix, san'at va madaniyatga oid kitoblardan olib berish;
- milliy adabiyot, tarix, san'at va madaniyatga oid asarlardan ko'chirmalar, nusxalar olib, ularni bolalarga yetkazish;
- bolalarda milliy rassomchilik, haykaltaroshlik va xalq amaliy hunarmandchiligi namunalariga nisbatan qiziqish uyg'otish hamda nodir asarlar bilan ularni tanishtirish;
- bolalar bilan birga dars tayyorlash, turli qiziqarli mashg'ulotlar o'tkazish.

4. Milliy qadriyatlarimiz asoslarini yorituvchi videoko'rsatuvlar, filmlar hamda lavhalarni bolalarga ko'rsatish;

5. Bolalar ongiga milliy qadriyatlarni singdirishda maqsadga yo'naltirish usullari:

- bilimlarni egallashga yo'naltirish;
- ko'nikma-qobiliyatlarni shakllantirish;
- qadriyatlarga ijodiy yondoshishga o'rgatish;
- o'z qiziqishlarini amalga oshirishga yo'naltirish;
- bolalarga o'zlari olgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini sinovdan o'tkazishga o'rgatish;
- olingan barcha bilim va ko'nikmalarni milliy qadriyatlarimizni o'rganish va asrab-avaylashga yo'naltirish.

Sinf rahbari o'quvchilarni vataniga, xalqiga, oilasiga, istiqlool g'oyalariga sadoqatli, fidokor, mustaqil fikrlaydigan, dunyoqarashi keng, e'tiqodi yuksak, iqtidorli, tashabbuskor, mas'uliyatli, ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazish kelajagi buyuk O'zbekistonning gullab-yashnashi uchun garovdir,

O'zbek xalqi qadimdan oila ma'naviyatiga alohida e'tibor qaratgan. Bugungi kunda ma'naviy merosdan foydalanib, mustaqil respublikamiz talabiga javob beradigan yoshlarni tarbiyalash har bir oilaning muqaddas burchidir.

Yurtboshimiz I.Karimov ta'kidlaganidek: «har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rta qo'yilgan maqsadlarga erishishi o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsa ularning sobitqadam shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir». SHu boisdan ham yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor berish, ularni jamiyatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotida faol ishtirok etishlarini ta'minlash har bir oilaning, fuqaroning, davlat va nodavlat tashkilotlarining burch va vazifasi hisoblanadi.

Yurtboshimiz o'zlarining nutqlarida yoshlar tarbiyasiga barchaning diqqatini

qaratayotgani bejiz emas, chunki XXI asrda yashab samarali mehnat qilish, O'zbekistonning buyuk kelajagini bunyod etish asosan bugungi yosh avlod zimmasiga tushadi. SHuning uchun yoshlarni chuqur bilimli, yuksak madaniyatli, mehnatsevar va tashabbuskor shaxslar etib shakllantirish oilada hayot tajribasiga ega, turmushning achchiq-chuchugini ko'rgan, qiyinchiliklarda toblangan yoshi ulug'larimiz, faxriylarimiz va ota-onalarning, shu bilan birga, mazkur ishga da'vat etilgan tarbiyachilar va jamoatchilikning asosiy vazifasidir.

Bunday milliy urf-odatlarimiz va axloqimizga zid keladigan harakatlar qaerdan paydo bo'ldi? Davr taqqozosimi? Insoniyat kamoloti ifodasimi? Yoki ma'naviy-tarbiyaviy ishlarimizning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligimi?

SHuni unutmaslik kerakki, insoniyat va millatlar takomili hech qachon milliy qadriyatlarimizni poymol etish, axloqu odob pardalarini g'ijimlash evaziga emas, aksincha, insonni yanada balandroq ma'naviyat, poklik va odob chuqqisiga olib chiqishda namoyon bo'ladi.

Odamlarning ongini, ruhiyatini, ismu jismini poklantirish hozirgi kundagi tarbiyaviy-ma'naviy faoliyatimizning asosini tashkil etmoqda. Bunga sabablar ko'p. Bir o'rinda o'tmish davrlar asoratidan qutilish ko'zda tutilsa, ikkinchi o'rinda inson tabiatida uchraydigan, kezi kelganda xuruj qilib turadigan qusurlardan qutulish ehtiyoji ham mavjud. Mustaqillik zamoni ana shunday ob'ektiv va sub'ektiv insoniy xususiyatlar, fazilatlarni poklantirish yo'lga, azaliy va milliy taraqqiyot o'zaniga solib yubordi. Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz o'zining umumbashariy mohiyatini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Milliy an'ana va qadriyatlar rivoji shunday bir dialektik printsipga asoslanganki, kimki o'z xalqi milliy qadriyatini boshqa millat qadriyatlariga teskari qo'ymagan holda va, aksincha, boshqa millat ma'naviyatini chuqur his qilish darajasiga o'sib chiqsa va o'z milliy qadriyatini bemalol va beminnat namoyish etish imkoniyatiga ega bo'lsa, milliy munosabatlarda do'stona iqtisodiy va ma'naviy muloqotdan o'zga niyat bo'lmasa, ana shunda turli millatlarning ma'naviyatini ifodalovchi umumbashariy qadriyatlar o'sib boraveradi.

O'z tarixini, ma'naviyatini, qadriyatlarni o'zi bunyod etuvchi xalq, elat va

millatlarga endi shunday imkoniyatlar yaratilmoqdaki, xalqimizning ham jahon xalqlariga faxrlanib, iftixor tuyg'usi bilan ko'z-ko'z qiladigan fazilatlarini qanchalik mo'l-ko'l bo'lsa, yangi tug'ilib, shakllanib qoladigan qusurlarni bartaraf etishga ham aqli va zakovati yetarlidir. Buni milliy urf-odatlarimiz, axloq odobimiz, chin insoniy ne'matlarimiz taqozo etadi.

Binobarin, «Ajdodlarimizning ruhi poklari va urf-odatlarini, bizning eng yaxshi an'analari qayta tiklanganda islohatlar muvaffaqiyatga erishadi. o'ta o'qimishli, ruhan bardam va jismonan baquvvat kishilargina istiqloq va taraqqiyot yo'lini bosib o'ta oladi. Sarchashmalari buyuk ajdodlarimizning tafakkurlari va muddaolaridan boshlanadigan xalqimizning ma'naviy qadriyatlarini iqtisodiy o'zgartirishlarimizning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi».

Oilaviy bayramlarni nishonlash, yoshlar tarbiyasida alla, ertak, xalq maqol va matallaridan, qo'shiklaridan samarali foydalanish, birgalikda madaniy xordiq, chiqarishni, milliy sport o'yinlari va musobaqalarini, tarixiy obidalar va qadamjolariga sayohatlar uyushtirish, boshqa millat ma'naviyatiga hurmat bilan munsabatda bo'lish, oila kitobxonligini tashkil etish, oilada til, muloqot va kiyinish madaniyatiga alohida e'tibor berish, farzandlarga kasb-hunar o'rgatish, oilada bo'sh vaqtni ijtimoiy foydali mehnat vositasida samarali tashkil etish oila ma'naviyatini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Bu o'rinda Vazirlar Mahkamasining «Ma'naviyat va ma'rifat sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha 1998-2000 yillarga mo'ljallangan Dastur»i muhim dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda har bir fuqaroning ma'naviy-ma'rifiy yuksakligiga erishish davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan birini tashkil etar ekan, bu boradagi ishlarning tamal toshlari aynan oilada va maktabda qo'yiladi. Jamiyat ma'naviyatini shakllantirish bilan bog'liq ishlar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladigan ta'limiy va tarbiyaviy tadbirlar vositasida olib borilmoqda, bu albatta oila bilan ham bog'liqdir:

- mahallalar, oilalar va xotin-qizlar orasida amalga oshiriladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlar tarzida;

- maktabgacha tarbiya muassasalari, umumtalim maktablari, oliy va o'rta maxsus ta'lim o'quvchi, talabalari, yoshlar va boshqa toifadagi fuqarolar o'rtasida olib borilayotgan tadbirlar;
- ommaviy-axborot vositalari, matbuot vositasida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar;
- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish, samaradorligini oshirish bilan bog'liq; ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy va ilmiy-metodik yo'nalishlarda tadqiqot ishlari olib borish, sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish;
- xalqlar, millatlararo do'stlik-birodarlik, ahillik, totuvlikni ta'minlashga qaratilgan tadbirlar;
- madaniy-ma'rifiy, ijodiy tashkilotlar tomonidan aholining ma'naviy madaniyatlik darajasini oshirish, ularning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish maqsadida amalga oshiradigan tadbirlar;

Mazkur yo'nalishlarda olib boriladigan madaniy-ma'rifiy ishlar sinf rahbarisiz, oila a'zolarining ishtirokisiz bo'lishi mumkin emas.

Ushbu tadbirlar majmuasi negizida yirik oilaviy sport musobaqalari, qo'shiq bayramlari, oilaviy ansambllarning ko'rik-tanlovlari, san'at bayramlari iqtidorli ijodkorlar bilan o'tkaziladigan ijodiy kechalar, milliy musiqa, raqs, qo'shiq, milliy estrada san'atini keng targ'ib etishga qaratilgan maxsus teleko'rsatuvlar, teleradio darslari tashkil etish har bir fuqaro ma'naviy ongi va tafakkurini shakllantirishda ijobiy natijalar beradi.

Xulosa

Sinf rahbari ishini boyitishda milliy qadriyatlardan foydalanish ularda vujudga kelishi mumkin bo'lgan tarbiya muammolari oldini olishi jihatidan hozirgi davrning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Ushbu mavzu yordami tegishi mumkin bo'lgan muammolar aksariyat hollarda ijtimoiy mazmunga ega bo'lib, ularni quyidagicha ifodalash mumkin bo'ladi.

Sinf rahbari ishini milliy qadriyatlar asosida shakllantirish bu muammolarni hal etish profilaktik omillaridan asosiysi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunda.

Milliy qadriyatlarni namoyish etish usullari:

- fotolavhalar namoyishi;
- illyustratsiyalar namoyishi;
- milliy qadriyatlarning o'zgarish, rivojlanishi kuzatish usullari.

Amaliy usullar:

- bolalar bilan hamkorlikda mehnat, osori –atiqalar, obidalar, eski qo'lyozma yoki kitoblarni asrab-avaylash;
- bolalarni turli saylgoh va ziyoratgohlarga olib borish;
- xalq milliy bayramlarida va yirik umumxalq tadbirlarida ishtirok etish.

Ushbu tadbirlar majmuasi negizida yirik oilaviy sport musobaqalari, qo'shiq bayramlari, oilaviy ansambllarning ko'rik-tanlovlari, san'at bayramlari iqtidorli ijodkorlar bilan o'tkaziladigan ijodiy kechalar, milliy musiqa, raqs, qo'shiq, milliy estrada san'atini keng targ'ib etishga qaratilgan maxsus teleko'rsatuvlar, teleradio darslari tashkil etish har bir fuqaro ma'naviy ongi va tafakkurini shakllantirishda ijobiy natijalar beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. - 174 b.
2. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: O'zbekiston, 2000. -30-34-b.
3. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni// Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: SHarq, 1997. -20-29 b.
4. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"// Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: SHarq, 1997. -32-61 b.

5. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis. 1-jild. –T.: Qomuslar bosh tahririyati. 1991.
6. Abu Nasr Forobiy. Baxt-saodatga erishuv haqida. Risolalar. –T.: Fan. 1975.
7. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-tom. –T.: Fan. 1968.
8. Alisher Navoiy. Mahbub-ul qulub. –T.: Badiiy adabiyot. 1966.
9. Ali Ibn Sino ta'lim va tarbiya haqida. –T.: O'qituvchi. 1967.
10. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilik. –T.: Yulduzcha. 1990.
11. Kaykovus. Qobusnoma. –T.: SHarq matbaa kontserni. 2009.